*Chakana kreditlash qo'mitasining*
*2025 yil "25" iyundagi*
*2025-21 - sonli*
*majlis bayoniga 4-sonli ilova*

# KREDIT MAHSULOTI PASPORTI

| | |
|---|---|
| **Kredit mahsulotining turi va nomi** | **Mikroqarz "Polis"** |
| **Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar** | O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan, 18 yoshga to'lgan jismoniy shaxs. |
| **Mikroqarz valyutasi** | O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi – so'm |
| **Mikroqarz miqdori** | 100.0 mln.so'mgacha |
| **Mikroqarz maqsadi** | Maqsadsiz |
| **Mikroqarz muddati** | Imtiyozli davrsiz, 36 oy muddatgacha |
| **Taqdim etish shakli** | Qarz oluvchining «ASIA ALLIANCE BANK» ATBda ochilgan so'm plastik kartasiga pul o'tkazish yo'li orqali |
| **Foiz stavkasi** | 12 oy muddatgacha – 27,0 %;<br>36 oy muddatgacha – 30,9 %; |
| **Mikroqarz ta'minoti** | **Rasmiy daromadga ega jismoniy shaxslar uchun:**<br>• 25 000 000.0 (yigirma besh million) so'mdan oshmagan miqdorda ajratiladigan mikroqarz uchun – Mikroqarz miqdorining 125% dan kam bo'lmagan miqdorda, bank talablariga muvofiq keladigan uchinchi shaxs kafilligi/sug'urta polisi yoki boshqa likvidli mol-mulk garovi;<br>• 25 000 000.0 (yigirma besh million) so'mdan 100 000 000.0 (yuz million) so'mgacha bo'lgan miqdorda ajratiladigan mikroqarzlar uchun – mikroqarz miqdorining 125% dan kam bo'lmagan miqdorda, bank talablariga muvofiq keladigan kredit qaytmaslik xavfini sug'urtalash bo'yicha sug'urta polisi yoki likvidli mol-mulk garovi;<br>**Bankka aloqador bo'lgan shaxslarga:**<br>• Ajratiladigan kreditlar bo'yicha ta'minot O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan miqdorda qo'shimcha ravishda qabul qilinadi. |
| **Talab etiladigan hujjatlar** | A) Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, ID-karta, yashash uchun guvohnoma va h.k.);<br>B) Kredit qaytarilishini ta'minlovchi hujjatlar;<br>D) Mustaqil baholovchi tashkilotning garov mulkini baholash to'g'risidagi hisoboti (garov mulki talab etilgan hollarda);<br>E) Bankning mas'ul xodimlari tomonidan tuzilgan garovga olinadigan mol-mulkning dastlabki monitoring dalolatnomasi mol-mulkning foto sur'atlari bilan (garov mulki talab etilgan hollarda). |

| | |
|---|---|
| | Qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlari to'g'risidagi ma'lumotlar bank tomonidan maxsus tarmoqlar orqali elektron shaklda mustaqil ravishda olinadi. Bunda daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar kamida oxirgi 6 (olti) oy uchun hisoblandi. Agar Qarz oluvchining o'rtacha oylik daromadlarini aniqlash imkoniyati bo'lmagan taqdirda, o'rtacha oylik daromadlarini va boshqa daromad manbalarini tasdiqlovchi hujjatlar Qarz oluvchidan talab qilinishi mumkin. |
| **Mikroqarzni qaytarish tartibi** | Mikroqarz va hisoblangan foizlarni to'lash kredit shartnomasida belgilangan tartibda va shartlarda annuitet yoki differensial to'lov usulida amalga oshiriladi. |
| **Qo'shimcha shartlar** | • Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining alohida sof daromadi BHMning 6 barobaridan kam bo'lmasligi lozim;<br>• Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining o'rtacha oylik sof daromadining 50% mikroqarz bo'yicha eng yuqori oylik to'lov hamda mavjud kreditlar/qarzlar bo'yicha o'rtacha oylik to'lov miqdorini qoplash uchun yetarli bo'lishi lozim. Bunda Birgalikda qarz oluvchi mavjud holatda, Qarz oluvchining o'rtacha oylik sof daromadining 50 (ellik) foizi kredit uchun eng ko'p oylik to'lovning kamida 50 (ellik) foizini to'lash uchun yetarli bo'lishi lozim;<br>• Kafilning daromadi yuqoridagi talabga muvofiq alohida baholanadi.<br>• Ijobiy kredit tarixiga ega bo'lishi. Bunda;<br>30+ 10 tagacha yo'l qo'yiladi;<br>60+ 5 tagacha yo'l qo'yiladi;<br>90+ 2 tagacha yo'l qo'yiladi.<br>• MIB joriy qarzdorligi bo'lmasligi.<br>• Ushbu mikroqarz krediti o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarga ajratilmaydi. |